

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TOXTAYEVA NOZILA MURODJON QIZI

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL
ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD)
on Economical sciences**

Toxtaeva Nozila Murodjon qizi

Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini
takomillashtirish..... 3

Тохтаева Нозила Муроджон кизи

Совершенствование механизма организации государственных закупок
в бюджетных организациях..... 25

Tokhtaeva Nozila Murodjon kizi

Improving the mechanism for organizing public procurement in budgetary
organizations..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 54

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

TOXTAYEVA NOZILA MURODJON QIZI

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL
ETISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2754 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Karlibaeva Raya Xodjibayevna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Tashmuradova Buvsara Egamovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamroyev Mexroj Sirojxonovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot: **O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 16 " 06 kuni soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (169 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. tel.: (+99871) 239-01-49, faks: (+99871) 239-41-23, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11 " 06 kuni tarqatildi.
(2025-yil 11 " 06 daqi 52 raqamli reestr bayonnomasi).



S.U. Mexmonov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarining kuchayishi davlat boshqaruv organlarining samarali faoliyatida davlat xaridlarining ahamiyatini oshirib bormoqda. Davlat xaridlari tizimining samarali tashkil etilishi mamlakat iqtisodiyoti, siyosati va ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xususan, mamlakat aholisining turmush darajasi to'g'ridan-to'g'ri sotib olinadigan tovarlar, ish va xizmatlar sifatiga bog'liq. "Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT) mamlakatlarida davlat xaridlari xarajatlarining YaIMdagi ulushi so'nggi o'n yilda sezilarli darajada oshdi. Ya'ni davlat xaridlari 2007-yildagi YaIMning 11,8 foizidan 2021-yilda YaIMning 12,9 foiziga qadar oshgan. So'nggi yillarda yalpi ichki mahsulotga nisbatan davlat xaridlari ulushining yanada ortishi kuzatilmog'da. IHTT va Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida davlat xaridlari 2019-yildagi YaIMning 13,7 foizidan 2021-yilda 14,8 foizgacha oshgan"¹. Bu esa jahon miqyosida byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishning dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda global integratsiya jarayonlarining kuchayishi sharoitida byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ko'plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilmoqda. Davlat xaridlarini tashkil qilish mexanizmini raqamlashtirish, xarid jarayonlarining ochiq-oydinligi, shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, elektron savdo jarayonlaridan foydalanish, davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish orqali savdolarda raqobatni kuchaytirish, xalqaro tajriba va iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqqan holda davlat xaridlarini tashkil etish, byudjet mablag'laridan samarali foydalanish, xarid jarayonida kichik biznes subyektlariga ko'proq imtiyozlar berish hamda davlat xaridlari tizimining mavjud mexanizmini xalqaro standartlarga moslashtirish masalalari bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilib, samarali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2021-yil 22-aprelda davlat xaridlari jarayonini shaffof va samarali qilishga qaratilgan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun qabul qilindi. 2020-yil 1-apreldan boshlab, davlat xaridlari jarayoni bosqichma-bosqich elektron shaklga o'tkazilib, bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilib, xaridlarning oshkoraligi va raqobatbardoshligi ta'minlandi. Davlat xaridlari to'g'risidagi ma'lumotlarni jamlash va ularni ochiq qilish maqsadida maxsus axborot portali ishga tushirildi. Davlat xaridlari sohasida nazoratni amalga oshirish uchun Hisob palatasi, Bosh prokuratura, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Moliya vazirligi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi singari organlar faoliyat yuritmoqda. Shuningdek, fuqarolar, mahalla, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalariga jamoatchilik nazoratini amalga oshirish huquqining belgilab

¹ Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2023). Government at a Glance 2023. OECD. <https://doi.org/10.1787/3d5c5d31-en>

berilishi davlat xaridlari jarayonini shaffof, samarali va korrupsiyadan xoli qilishga xizmat qiladi. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishda, birinchi navbatda, narxlarni belgilash, raqobat muhitini saqlash, kichik biznes subyektlarini davlat xaridlari sohasiga jalb qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish, xaridlar jarayoni xavfsizligini ta'minlash va rivojlantirish bilan bog'liq mexanizmi takomillashtirish muammosi, nazariy va amaliy yechimlarni talab etuvchi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-iyuldagi PQ-5171-son "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 5-dekabrdagi PQ-4544-son "Davlat xaridlari tizimini yanada takomillashtirish va davlat xaridlari jarayoniga tadbirkorlik subyektlarini keng jalb qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3237-son "Tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakl va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31-yanvardagi 46-son "Qurilish sohasida elektron davlat xaridlarini tashkil etish va amalga oshirish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 20-maydagi 276-son "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi myayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya ishi respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Davlat xaridlar faoliyati va u bilan bog'liq myammolarni o'rganish, parametrlarni amaliy tahlil qilish jihatlari A.A.Makarov, M.Igarashi, T.V.Frayberg, D.Etce, A.Makmyrray, N.Myenjon, davlat xaridlarini tartibga solishni rivojlantirish masalalari V.E.Belov, L.M.Davletshina, V.C.Gladkov, A.F.Nozdachev, L.M.Davletshin, L.V.Andreeva singari olimlar tomonidan tadqiq etilgan².

Davlat xaridlarini milliy iqtisodiyotda samarali tashkil etishning amaliy jihatlari A.Vaxabov, T.Malikov, N.Xaydarov, N.Jymayev, U.Burxanov,

² Макаров А.А. Развитие организационно-экономического механизма противодействия коррупции в системе органов внутренних дел. диссертации и автореферата по ВАК РФ 08.00.05 2009.; Mieko Igarashi. Doctoral theses at NTNU, 2018:223. Towards more effective green public procurement Empirical and conceptual studies of environmental criteria in decision-making and information processing. Norwegian University of Science and Technology Faculty of Economics and Management Department of Industrial Economics and Technology Management. Фрайберг Т.В. Государственный (муниципальный) заказ как форма организации бюджетного финансирования: Дис. канд. эк. наук: 08.00.10. Иркутск, 2006. С. 66.; Daniel Etse, Adela McMurray, Nuttawuth Muenjohn Comparing sustainable public procurement in the education and health sectors. // Journal of Cleaner Production 279 (2021) 123959; 7 Белов В.Е. Правовое регулирование размещения государственного заказа. // Право и экономика. 2005. No 2; Давлетшина Л.М. Государственный заказ как инструмент проведения промышленной политики (на примере Республики Татарстан): Дисс. канд. экон. наук. Казань, 2007. С. 47; Gladkov В.С. Государственный заказ в сфер Ростов-на-Дону, 2008. С. 14.; Ноздрачев А.Ф. Государство как заказчик продукции // Государство и право. 1994. No 7.; Андреева Л.В. Закупки товаров для федеральных государственных нужд: правовое регулирование. – М.: Волтерс Клувер, 2009. С. 24.

E.Maxmudov, T.Atamyradov, T.Eshnazarov, G.Qosimova, Z.Sirojiddinova, D.Pulatov, M.Haydarov M.Olloyorov, J.Umarov, U.O‘roqov, D.Gafurov, D.Qosimov, C.Turabov singari iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan³.

Mavzy doiracida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda, davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli tarzda to‘liq o‘rganilmagan. Mazkyr holatlar dissertatsiya ishida tadqiq qilingan ilmiy-amaliy myammolar va ularni bartaraf qilish yuzacidan ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning dolzarblik darajacini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Mazkyr dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejaciga muvofiq “Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliya, bank va hisob tizimini muvofiqlashtirishning ilmiy asoslari” mavzusi doiracida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

byudjet tashkilotlarida “davlat xaridi” kategoriyasining mazmun-mohiyati va ilmiy-nazariy asoslarini tadqiq etish;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini o‘rganish;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini samarali tashkil etishning zarurati va ahamiyatini yoritib berish;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibini takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishning amaldagi holatini tahlil qilish;

³ Вахабов А.В., Маликов Т.С. Молия: Умумдавлат молияси. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия. - 2010, - 595 б.; Хайдаров Н.Х. Давлат молиясини бошқариш. Ўқув-услубий қўлланма. – Т.: Академия, 2005. 84 б., Бурханов У., Атамуратов Т. Давлат хариди. Ўқув қўлланма. – Т.: Фан ва технологи, 2012 йил. -152 б.; Эшназаров Т.Ш. Ўзбекистон Республикасида ғазначилик тизими асослари. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2012. -304б.; Қосимова Г.А. Ғазначилик. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2013.- 448б.; Срожиддинова З. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. – Т.: Infocom.uz, 2010. -480б.; Пулатов Д.Х. Нурмухамедова Б.И. Ғазначилик. Ўқув қўлланма. – Т.: Сано-стандарт, 2014. -272б.; Хайдаров М. ва бошқалар. Давлат бюджети ижросининг ғазначилик тизими. Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисод-молия, 2010. -235 б.; Оллоёров М., Холмурадов Д. Система Государственных закупок в Узбекистане, [http://publicfinance.uz/materials.](http://publicfinance.uz/materials;); Умаров Ж.. Давлат харидлари тизимини такомиллаштиришнинг методологик жиҳатлари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Ўроқов У. Маҳаллий бюджетлар мустақиллигини оширишни такомиллаштириш йўллари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Гафуров Д. Ўзбекистонда давлат ва корпоратив харидлар жараёнини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Атамуратов Ж. Ўзбекистонда давлат харидлари тизимини такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020; Қосимов Д. Давлат харидлари тизимининг жорий ҳолати, камчилик ва муаммолар. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 Issue 2; Турабов С. Бюджет ташкилотларининг давлат харидларини амалга оширишдаги молиявий муносабатларини такомиллаштириш йўллари. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2021.

byudjet tashkilotlari tomonidan boshlang'ich narxni pasaytirish mexanizmi orqali davlat xaridlarini amalga oshirishni tahlil qilish;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini innovatsion transformatsiya orqali takomillashtirish istiqbollarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish jarayonlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "davlat xaridlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xarid qilinayotgan tovarlar(ishlar, xizmatlar)dan samarali foydalanish maqsadida davlat byudjeti mablag'lari hisobiga davlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun ularni yetkazib beruvchilar va buyurtmachilar o'rtasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarni namoyon etuvchi tizim korrupsiyaga qarshi kurash va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

davlat xaridlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomaning tovar, uning sifati va assortimentini o'zgartirish, tovarning miqdori va bahosini oshirish, yetkazib berish muddatini uzaytirish singari muhim shartlarini o'zgartirish bo'yicha mazkur shartnoma shartlariga muvofiq qo'shimcha kelishuv tuzishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

davlat xaridlari tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaning amalga oshirilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ish va xizmatlar qiymatini shartnoma bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan ko'p bo'lgan summaga oshirishga yo'l qo'ymaslik talabini qo'llash taklifi asoslangan;

O'zbekistonda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida davlat xaridlari hajmining 2027-yilga qadar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi va qoidalarini tasniflash taklif etilgan;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishda ularni baholash ko'rsatkichlari tizimlashtirilgan;

byudjet tashkilotlari tomonidan boshlang'ich narxni pasaytirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish mexanizmi bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari mexanizmini innovatsion transformatsiya orqali takomillashtirish bo'yicha takliflar berilgan;

davlat xaridini takomillashtirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali xatarlarni boshqarish yo'nalishlari aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqoti ilmiy natijalarining ishonchliligi tadqiqot ishida qo'llanilgan uslubiy yondashuvlarning maqsadga muvofiqligi, foydalanilgan ma'lymotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, berilgan xulosa, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarga ko'ra tadqiqot

natijalarining joriy qilinganligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati izlanish natijasi asosida olingan ilmiy xulosalar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarga asos sifatida xizmat qilishi, raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga oid uslubiy ko'rsatmalarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni raqamli iqtisodiyot sharoitida davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar mazmunini shakllantirish hamda iqtisodiyot yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlarida "Davlat xaridlari", "Moliya", "G'aznachilik", "Moliyaviy nazorat", "Byudjet hisobi" fanlari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "davlat xaridlari" tushunchasining iqtisodiy mazmunini xarid qilinayotgan tovarlar(ishlar, xizmatlar)dan samarali foydalanish maqsadida davlat byudjeti mablag'lari hisobiga davlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun ularni yetkazib beruvchilar va buyurtmachilar o'rtasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarni namoyon etuvchi tizim korrupsiyaga qarshi kurash va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirish bilan bog'liq nazariy va uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Korporativ moliya" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 31-yanvardagi 03\03-237-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda korrupsiyaga qarshi kurash va byudjet mablag'laridan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan davlat xaridlari tushunchasining iqtisodiy mazmuni yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

davlat xaridlari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri tuzilgan shartnomaning tovar, uning sifati va assortimentini o'zgartirish, tovarning miqdori va bahosini oshirish, yetkazib berish muddatini uzaytirish singari muhim shartlarini o'zgartirish bo'yicha mazkur shartnoma shartlariga muvofiq qo'shimcha kelishuv tuzish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qaroriga ilova "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 31-yanvardagi 03\03-237-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi bozor iqtisodiyotining o'zgaruvchan sharoitlarida davlat xaridlari jarayonlarining barqarorligi va moslashuvchanligini oshirish imkonini bergan;

davlat xaridlari tartib-taomili natijasi bo'yicha tuzilgan shartnomaning amalga oshirilishi lozim bo'lgan qo'shimcha ish va xizmatlar qiymatini shartnoma

bo'yicha uning umumiy boshlang'ich summasining 10 foizidan ko'p bo'lgan summaga oshirishga yo'l qo'ymaslik talabini qo'llash taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli qaroriga ilova "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizomda o'z ifodasini topgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 31-yanvardagi 03\03-237-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan shartnoma doirasida amalga oshiriladigan qo'shimcha ish va xizmatlar qiymatini nazorat qilish imkonini bergan;

O'zbekistonda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalovchi ekonometrik model asosida davlat xaridlari hajmining 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan amaliyotda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi 2025-yil 31-yanvardagi 03\03-237-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlari hajmining istiqboldagi o'zgarishlari boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan o'zaro muvofiqligini ta'minlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 3 ta xalqaro miqyosda o'tkazilgan jami 5 ta ilmiy-amaliy konferentsiyalarda myhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan 2 ta mahalliy jurnalda, 3 ta xorijiy jurnalda maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Dissertatsiyaning hajmi 169 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan, respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari aks ettirilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishning ilmiy-nazariy, huquqiy asoslari**" deb nomlanib, unda davlat xaridlarini tashkil etishning ilmiy-nazariy, huquqiy asoslari, byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy asoslari, byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini samarali tashkil etishning zarurati va ahamiyati, maqsadlari tadqiq etilgan. Rossiyalik olimlar D.V.Goroxova⁴, N.G.Kosyan,

⁴ Gorokhova D.V. Public Procurement in the Russian Federation: Retrospective and Development. Financial Journal, 2020, vol. 12, no. 2, pp. 57–68 (In Russ.). DOI: 10.31107/2075-1990-2020-2-57-68

I.V.Milkinaning fikrlaricha⁵, raqamlashtirish davlat va shahar xaridlari tizimini rivojlantirishning muhim vektori bo‘lib, elektron shartnomalar haqida tobora ko‘proq fikr bildirilmoqda va joriy etish to‘g‘risidagi bayonotlar natijasida ijtimoiy sohada xaridlar tizimiga blockcheyn texnologiyalari qo‘llaniladi. J.Umarovning fikricha, davlat xaridlari tizimi milliy iqtisodiyotni tartibga solishining muhim institutlaridan biri hisoblanib, aralash iqtisodiyot sharoitida davlat talabini bir qator tarmoqlar mahsulotining iste‘molchisi, uning miqdori va tarkibiga ta‘sir ko‘rsatuvchi iqtisodiyotni tartibga solishning kuchli vositasi ekanligi ta‘kidlangan.

Davlat xaridlari tushunchasiga yuqorida keltirilgan ta‘riflardan kelib chiqqan holda, muallifning fikricha, davlat xaridlari deganda xarid qilinayotgan tovarlar(ishlar, xizmatlar)dan samarali foydalanish maqsadida davlat byudjeti mablag‘lari hisobiga davlat ehtiyojlarini ta‘minlash uchun ularni yetkazib beruvchi va buyurtmachilar o‘rtasida yuzaga keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy munosabatlarni o‘z ichiga oladigan tizim tushuniladi. Darhaqiqat, “monitoring” tushunchasi dastlab texnik tadqiqotlarda inson faoliyati oqibatlarini nazorat qilish uchun qo‘llanilgan.

Ko‘rib chiqilgan ta‘riflarda monitoringning asosiy maqsadi iqtisodiy obyektning hozirgi holati parametrlarini belgilangan normalar, barqaror va xavfsiz ishlash va rivojlanish parametrlarining muhim qiymatlari bilan taqqoslashdan iborat. Shuningdek, muallifning fikricha, xarid qilish jarayonini monitoring qilishning blok sxemasi ishlab chiqilgan (1-rasm).



1-rasm. Xarid qilish jarayoni monitoringining blok sxemasi⁶


Ushbu blok sxema qurilish loyihalari doirasida xarid qilish (ta‘minot) jarayonining to‘liq monitoring tizimini bosqichma-bosqich ko‘rsatadi. Har bir bosqich o‘zaro mantiqiy bog‘langan bo‘lib, loyiha ehtiyojlarini aniqlashdan boshlab, tovarlarning qurilish maydonchasiga yetkazilishi va ularning sifat nazoratigacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi. Harid qilish va yetkazib berishning uzviy boshqaruv tizimini ifodalaydi. Har bir bosqichda amalga

⁵ Косян Н. Г., Милькина И. В. Блокчейн в системе государственных закупок // E-Management. 2019. № 1. С. 33–41

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

oshiriladigan monitoring, loyiha samaradorligini ta'minlash, mablag'larni tejash va qurilish muddatlarini aniq rejalashtirish imkonini beradi.

Davlat buyurtmasini joylashtirishni nazorat qilish sohasidagi asosiy yo'nalishlar davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizom hujjatlari buzilishining oldini olish, ularning noqonuniy harakatlarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, xarid qilishda ishtirokchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini to'liq ta'minlash maqsadida ularning harakatlarini bevosita nazorat qilish va adolatsizlikka yo'l quymaslik hisoblanadi. Zamonaviy rivojlanish sharoitida davlat xaridlari qurib utamiz.



2-rasm. Zamonaviy rivojlanish sharoitida davlat xaridlari⁷

⁷ Muallif ishlanmasi

Rasmga ko'ra, zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlari tizimi boshqaruvning muhim elementi sifatida, nafaqat davlat ehtiyojlarini qondirish funksiyalari, balki iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishni ham bajarishga mo'ljallangan.

O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichi butun iqtisodiy mexanizm singari alohida hududlar, korxonalar, tarmoq va komplekslarning samarali ishlashini ta'minlovchi, bunda atrof-muhitning zararsizligi va jamiyat farovonligini yaxlit ta'minlovchi yangi iqtisodiy usullarni qo'llash, iqtisodiy xatti-harakatlar strategiyasi va taktikasiga yangi talablarni shakllantirishni taqozo etadi.

Davlat xaridlarining iqtisodiyotga ta'siri, avvalo, ichki iqtisodiy siyosatdan kelib chiqqan holda qaralsa, u avvalo, mahalliy ishlab chiqaruvchilar, kichik va o'rta biznes tadbirkorlik subyektlari hamda davlat tomonidan amalga oshirilayotgan xaridlar tizimi orqali bajariladi. O'z navbatida, kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishga olib keladi, raqobatbardosh mahsulotlarga talabni shakllantiradi.

Davlat xaridlari byudjet xarajatlarining katta qismi hisoblanib, davlat ehtiyojlarini ta'minlash uchun ma'lum funksiyalarni bajargan holda raqamli iqtisodiyotni samarali, barqaror rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini samarali tashkil qilish jarayoni tahlili”** deb nomlangan, mazkur bobda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini amalga oshirish mexanizmi ko'rib chiqilgan. Bunda byudjet tashkilotlarida davlat xaridlarini tashkil etishning amaldagi holati tahlil qilingan. Shu bilan birga, byudjet tashkilotlari tomonidan boshlang'ich napxni pacaytipish orqali davlat xaridlarini amalga oshirish jarayoni tahlil qilingan.

O'zbekistonda davlat xaridlaridagi korrupsiyaga qarshi kurash samarasini oshirish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

1. Data-skrining imkoniyatiga ega barcha davlat xaridlari o'tkaziladigan yagona Portal yaratish va Data-skrining amaliyotini yo'lga qo'yish. Taklif etilayotgan Data-skrining davlat dasturida nazarda tutilgan nafaqat davlat xaridlaridagi manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar, balki korrupsiyaning boshqa yashirin belgilari (narxlar keskin (20-50 %gacha) tushishib ketishi, arizalarni rad etish, narxlarni arzimagan 0-1 %gacha pasayishi holatlari) asosida ham shubhali tenderlarni tezda aniqlash imkonini beradi. Data-skriningdagi mazkur mezonlarni belgilashda Ruminiya va Janubiy Koreya davlatlari tajribasidan foydalanish mumkin.

2. Davlat xaridlarida teng raqobat muhitini ta'minlash maqsadida hukumat qarorlari asosida tendr o'tkazmay, to'g'ridan-to'g'ri shartnoma tuzish imkoniyatlarini maksimal darajada qisqartirish va aniq mezonlarini belgilash kerak (masalan, davlat xavfsizligi, favqulodda holatlar, mudofa singari holatlar bilan cheklash).

3. Javobgarlikni kuchaytirish. Jinoyat kodeksiga “Davlat xaridlari to'g'risidagi qonunchilikni buzish” nomli alohida modda kiritish taklif etilgan. Jinoiy javobgarlik uchun davlat xaridlarida korrupsion holat bo'lishi shart emas, davlat xaridlaridagi protsessual qoidalarning qo'pol yoki takroran buzilishining

o‘zi jinoiy javobgarlikka tortish uchun yetarli asos bo‘lishi kerak. Ayrim holatlar uchun davlat xaridlaridagi qonunbuzilish holatlari bo‘yicha bir marta ma‘muriy javobgarlikka tortilgandan keyin takroran sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilash mumkin. Lekin “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi qonun buzilishi oqibatida davlat byudjetiga zarar yetkazilsa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoiy javobgarlikni belgilash masalasini o‘ylab ko‘rish kerak. Bu mansabdorlarning davlat xaridlarida mas‘uliyatini oshirishga yordam beradi va ma‘muriy yoki intizomiy javobgarlik bilan qutilib ketishning oldini oladi.

Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, davlat xaridlari jarayonida korrupsiyani bartaraf etish dasturi ishlab chiqilgan (1-jadval). Ushbu jadvalda davlat xaridlari jarayonida korrupsiyani bartaraf etish bo'yicha dasturlar va dasturlarning mazmuni keltirilgan bo'lib, ular davlat xaridlari jarayonida korrupsiyani samarali bartaraf etishga yordam beradi.

1-jadval


Davlat xaridlari jarayonidagi korrupsion holatlarni bartaraf etish dasturi⁸

Tadbir nomi	Tabdirlar mazmuni	Tadbir natijasi
Raqamlashtirish orqali «inson omili»ni kamaytirish	«Raqamli O‘zbekiston-2030» strategiyasi doirasida davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini raqamlashtirish	Mamlakatda yashirin iqtisodiyot ulushini kamaytirish, raqamlashtirish ko‘lamini yanada kengaytirishni davom ettirish, mexanizmlarini takomillashtirish
Ijtimoiy sohada “elektron mehnat daftarchasi”, “elektron sog‘liqni saqlash” tizimi, “Oliy ta‘lim jarayonini boshqarish axborot tizimi” (HEMIS), umumta‘lim maktablarida “elektron kundalik” tizimida «ijtimoiy himoya yagona reestri» tizimini joriy etish	Loyihalarni qabul qilinishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy oqibatlarni aniqlash va baholash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatning tartibga solish	Belgilangan maqsadlariga erishilganligini, samaradorligini hamda tartibga solish usulini qo‘llashda vujudga kelgan oqibatlarni aniqlash
Iqtisodiy sohada “lisenziya”, “E-auksion”, “YERELEKTRON”, “shaffof yo‘l”, “shaffof qurilish”, “Agrosubsidiya”, “Davlat xaridlari elektron tizimi”ni joriy etish	Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat organlari faoliyati ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini amalga oshirish	Xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini, standartlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish
Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash hamda ochiqlik	Davlat organlari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yagona printsiplari va qoidalarini belgilash	Davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, normativ-huquqiy hujjatlar va ular

⁸ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

indeksi joriy etish.		loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini tashkil etish
“Korrupsiyasiz soha” loyihalarining amalga oshirish	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan kapital qurilish, oliy ta’limida davlat xaridlari jarayonida «korrupsiyasiz soha» loyihasini amalga oshirish bo‘yicha «yo‘l xarita»sini ishlab chiqish	Davlat organlari korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar holati nazorat qilish
Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha “E-Antikorrupsiya” loyihasini amalga oshirish	Mamlakatimizda qabul qilinayotgan Qonunchilik hujjatlarini tartibga solish	Jamiyatning manfaatini ifoda etmasligi nuqtai nazardan korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish
Davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan ochiqlik indeksi joriy etish	Byudjet jarayonlarining ochiqligini ta’minlash	Byudjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi, ochiq va shaffofligi hamda jamoatchilik nazoratini ta’minlash imkonini beradi
Korrupsiyaviy xavflarni baholash “E-Anticor.uz” elektron platformasi orqali amalga oshirilib, baholash natijalari bo‘yicha “korrupsiyaga moyil bo‘lgan munosabatlar elektron reestri” ni yuritish	Davlat organlari faoliyatining ochiq va shaffofligini ta’minlash, jamoatchilik nazoratini samarali yo‘lga qo‘yish, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimlarini joriy etish.	OAV erkinligini ta’minlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash orqali kamaytirish choralarini ko‘rish, davlat xizmatchilarining malakasini oshirish
O‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladigan “Uzbekistan AntiCorruption Digest” onlayn jurnali ta’sis etish	Korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi normativ-huquqiy hujjatlar bazasi shakllantirilib, huquqiy asoslar yaratish	Ochiqlikni ta’minlash va jamoatchilik nazorati ko‘lamini kengaytirish orqali mavjud bo‘lgan sun'iy monopoliyalar, turli xil sxemalar, umuman, korrupsiyaga imkon berayotgan barcha bo‘shliqlarga barham berish

Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ochiqlik bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini baholashga qaratilgan ochiqlik indeksi joriy etildi. Shuningdek, Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning oldini olish bo‘yicha “E-Antikorrupsiya” loyihasi ishga tushirildi.



3-rasm. Byudjet tashkilotlaridagi korrupsion holatlarni 10 ballik baholash mezon⁹

Korrupsiyaga qarshi ekspertizani o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 13-bandiga ko‘ra, loyihalarning korrupsiyaga qarshi ekspertizasi ishlab chiquvchi tomonidan ushbu nizomning 3-ilovasiga muvofiq shakldagi cheklistni uslubiyot asosida to‘ldirish orqali o‘tkazilishi belgilangan. Biroq bu davrda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish uchun kiritilgan 2 256 ta loyihaning 391 tasi yoki 17 foiz holatda cheklist to‘ldirilmagan. Korrupsiyaga qarshi ekspertiza o‘tkazilmay turib, Adliya vazirligiga kiritilgan eng ko‘p loyihalar salmog‘i quyidagi vazirlik va davlat idoralariga to‘g‘ri kelmoqda: Toshkent shahar hokimligi 25 ta; investisiyalar va tashqi savdo vazirligi 22 ta; Sog‘liqni saqlash vazirligi 21 ta energetika vazirligi 14 ta; oila va xotin qizlar davlat qo‘mitasi 14 ta; O‘zbekiston savdo-sanoat palatasi 14 ta; iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi 13 ta; Madaniyat vazirligi 11 ta; qurilish vazirligi 11 ta aniqlandi.

Bundan ko‘rinadiki, davlat organlari va tashkilotlar tomonidan Qonunchilik hujjatlari loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish faoliyatiga yuzaki yondashilmoqda.

⁹ Muallif ishlanmasi

Umuman, davlat xaridlarini amalga oshirish uzoq muddatlarda olib borilganligi yoki vazirlik va idoralar, shuningdek, xo‘jalik boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xaridlarini amalga oshirishda istisno tarzida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar tuzish huquqini berishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-oktabrdagi 611-sonli “Nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida davlat nazoratini tashkil etish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 20-apreldagi 113-sonli “Davlat xizmatlari ko‘rsatishni soddalashtirish, byurokratik to‘siqlarni qisqartirish hamda davlat xizmatlari ko‘rsatish milliy tizimini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon, O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunlarida xaridlarining auditdan o‘tkazish belgilanmaganligi natijasida sohada qator muammoli vaziyatlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi.

Davlat xaridlarini samaradorligini ta‘minlash va bu tizimni takomillashtirishda uning amaldagi holatini tahlil qilish va buning natijasi asosida davlat o‘zining keyingi maqsad va rejalarini belgilab olishi muhimdir. Muallif tomonidan O‘zbekiston davlat xaridlarini takomillashtirish borasida uning amaldagi holati YaIM va davlat umumiy xarajatlaridagi ulushiga ko‘ra tahlil qilingan (2-jadval).

2- jadval

Davlat xaridlarining YAIM va davlat umumiy xarajatlaridagi ulushi¹⁰

‘rsatkichlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.
YIM, trln. so‘m	580,2	738,4	888,3
Davlat umumiy xarajatlari, trln. so‘m	144,2	245,2	321,8
Davlat xaridlari, trln. so‘m	124,1	132,4	243,5
shunda davlat xaridlari, YIMga nisbatan foizda	21,4%	17,9%	27,4%
shunda davlat xaridlari, davlat umumiy xarajatlarga nisbatan foizda	86,1%	54,0%	75,7%

Jadvalda davlat xaridlari umumiy davlat xarajatlarining juda salmoqli qismini tashkil qilmoqda. 2021-yilda bu ko‘rsatkich 86,1 foizga teng bo‘lgan. 2022-yilda davlat xaridlari 6 foizga o‘sib umumiy xarajatlarning 54 foizini tashkil qilgan. 2023 yil yakunlariga ko‘ra esa davlat xaridlari o‘tgan yilga nisbatan 84 foizga o‘sganiga qaramay umumiy xarajatlarda ulushi pastlagan va 75,7 foizni tashkil qilgan. Eslatib o‘tish joiz, jahon mamlakatlarida davlat xaridlari qiymati umumiy xarajatlarning o‘rtacha 25-35 foiz, ayrim mamlakatlarda 50 foizgachani tashkil

¹⁰ IHTT va O‘zR iqtisodiyot va moliya vazirligi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

qilmoqda. Davlat xaridlarini YaIMdagi ulushi 2021-yilda 21,4 foizdan 2023 yilga kelib 27,4 foizni tashkil qilgan. Bu IHTT mamlakatlari ko'rsatkichlariga solishtirilganda o'xshash natijani bermoqda.

Tadqiqot davomida byudjet buyurtmachilari borasida tovar toifalari kesimi va xaridda faol byudjet sohalari bo'yicha tahlil o'tkazilgan. Byudjet buyurtmachilari tovar(ish, xizmat)lar toifalari kesimida davlat xaridlari holati 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Byudjet buyurtmachilarining davlat xaridlari tovar(ish, xizmat)lar kesimida¹¹

Tovar (ish, xizmat)lar toifalari	Xarid summasi, trln. so'm			Jami xarid summasidagi ulushi, foiz		
	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.
Qurilish va rekonstruktsiya qilish	17,40	23,19	27,63	40,8%	39,0%	39,7%
Joriy va kapital ta'mirlash	8,10	13,67	16,77	19,0%	23,0%	24,1%
Kommunal xizmatlar	4,40	5,35	7,65	10,3%	9,0%	11,0%
Asosiy vositalar xaridi	3,10	4,16	5,71	7,3%	7,0%	8,2%
Oziq-ovqat xaridi	1,50	2,97	3,13	3,5%	5,0%	4,5%
Boshqa xaridlar	8,10	10,11	8,70	19,0%	17,0%	12,5%
Jami	42,60	59,45	69,59	100,0%	100,0%	100,0%

Jadvaldagi ma'lumotlarga ko'ra, tahlil qilinayotgan davrda byudjet buyurtmachilari amalga oshirgan tovar (ish, xizmat)lar toifasidagi xaridlari eng ko'p ulush bilan qurilish va rekonstruktsiya qilishga ajratilgan. Byudjet buyurtmachilari tomonidan byudjetdan 2021-yilda 17,4 trln. so'm, 2022-yilda 23,19 trln. so'm va 2023-yilda 27,63 trln. so'm mablag' mamlakatda qurilish va rekonstruktsiya qilishga sarflangan.

Keyingi o'rindagi xarajatlar joriy va kapital ta'mirlash hissasiga to'g'ri keladi. Bu yo'nalishdagi sarflar byudjet buyurtmachisining jami xaridlarida 19-24 foiz ulushni tashkil qilgan. Bu toifadagi xaridlar 2021-yilda 8,1 trln. so'm miqdorida bo'lib, 2023- yil yakuniga kelib, bu ko'rsatkich qariyb ikki barobar ortgan va 16,77 trln. so'mni tashkil qilgan. Qolgan tovar toifalari bo'yicha ham xaridlar ulushi deyarli o'zgarmagan, shunga qaramay, bazis davrga nisbatan xaridlar summasi 1,8-2 barobar ortganini ko'rish mumkin. Boshqa toifadagi tovar va xizmatlar bo'yicha xaridlar summasida sezilarli o'zgarish bo'lmagan, jami xaridlar summasidagi ulushi esa pasaygan. Boshqa xarajatlar sirasiga dori-darmon, vaksinalar va boshqa tovar(ish, xizmat)larni xarid qilishni kiritish mumkin.

Umuman, davlat xaridlarini amalga oshirish uzoq muddatlarda olib borilganligi yoki vazirlik va idoralar, shuningdek, xo'jalik boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining davlat xaridlarini amalga oshirishda istisno tarzida to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish huquqini berishni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

